

*Toshkent tuman 1-son KHM Maxsus fan o'qituvchisi
Shirinqulova Bahoroyim*

Grafik dizaynning doimiy rivojlanayotgan dunyosida ijodiy yo'nalishdan oldinda bo'lish tajribali mutaxassislar va yangi boshlanuvchi dizaynerlar uchun juda muhimdir. Yildan yilga dizayn landshafti yangi texnologiyalar, vositalar va tendentsiyalar asosida doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Va 2024-yil yaqinlashib kelayotgani sari biz qiziqarli yangi ijodiy imkoniyatlar bilan tanishish arafasida turibmiz. Siz yangi g'oya izlayotgan dizayner bo'lasizmi yoki o'z brendingizni yangilayotgan biznes egasi bo'lasizmi, tendentsiyalardan xabardor bo'lish juda muhimdir.

Multimediya va kollajdan tortib interaktiv vizual tajribalargacha, barcha-barchasini bizning mutaxassislarimiz, jumladan, Orpin va dizayner Jeykob Kass orqali bilib olamiz. Multimedia dizayni va raqamli kollaj so'nggi bir necha yil ichida dizayn dunyosini butunlay qo'lga kiritdi. Shuni aniq aytishimiz mumkinki bu yo'nalishlar yana bir necha yillar bizni tark etmaydi. Kollaj an'anaviy ravishda analog san'at turi bo'lsa-da, zamonaviy multimedia dizaynining yuksalishi uning imkoniyatlarini kengaytirdi. Melburnlik rassom Beci Orpin o'z ijodini kollaj orqali ifodalash bo'yicha mutaxassis hisoblanadi. Uning ishi qo'lda chizilgan eskizlar kabi bolalar stikerlari, konfet o'ramlari, mato namunalari va xalqaro markalar bilan uyg'unlashtirgan bo'lib g'aroyib, nazokatli va bolalarcha tasvirlangan. Uning yaqinda nashr etilgan "Qizlar kitobi" kollaj san'atining durdona asari bo'lib, u o'z faoliyati davomida to'plagan esdalik sovg'alari, eskiz daftarchalari va turli ilhom manbalarini o'z ichiga oladi. "Men kollajni yaxshi ko'raman va multimedia dizayni, ayniqsa illyustratsiya - men eng ko'p sevib shug'ullanadigan sohadir", deydi Beci. "Bu juda qiziqarli va men o'z ishimdan faxrlanaman. Skanerlangan, vektorli va narsalarni suratga olishni va barchasini bir joyga qo'yishni yaxshi ko'raman. Men buni asosan taktik kollaj formatida qilaman, lekin siz buni kompozitsiyalar bilan raqamli ravishda qilishingiz mumkin."

2024-yilda statik vizuallar bilan bimalol xayrlashishingiz mumkin, chunki ushbu grafik dizayn tendentsiyasi harakat orqali diqqatni tortuvchi ta'sirga ega emas. Siz animatsion dizayndan ijodiy loyihalaringizga jon berish, qiziqarli hikoyalar bilan tomoshabinlarni o'zingizga jalb qilishingiz va foydalanuvchining estetik qarshlarini yaxshilash uchun foydalanishingiz mumkin. Rassom Julia Chetvudning gulli animatsiyasi kabi nozik "hover effecte" yoki to'liq harakatlanuvchi grafika bo'lsin, animatsiya cheksiz ijodiy imkoniyatlarni bizga taqdim etadi. "Hozirda ajoyib animatsiya dizayni ommalshmoqda", deydi Beci. "Men "Save the Children" uchun bir qator animatsiyalar yaratdim, lekin men ko'proq animatsion dizaynlarni ko'rishni,

animatsiya haqida ko'proq bilishni va ishimni harakatga keltirishni xohlayman." 2024 yil – o'z axborotingizni boshqalarga yetqazish uchun animatsiyadan foydalanish yili. Ko'proq esda qolarli va hayratlanarli loyihalar yaratish uchun logotiplar, rasmlar yoki web-elementlarga harakat qo'shish orqali ushbu dinamik tendentsiyadan foydalanishingiz mumkin. Muvaffaqiyatli animatsiya dizayni uchun vaqt, vizual uyg'unlik juda muhim bo'lib, u haddan tashqari uzoq cho'zilmaligi, balki umumiy ta'sirni kuchaytirishi kerak. Biz 2024-yilda interaktiv va taktik dizaynning o'zgaruvchanligini ko'rishni kutaymiz. Bu tendentsiya, ayniqsa, real hayotdagi chakana savdo olamida kuchaymoqda. Ko'proq brendlar xaridorlarni o'z do'konlariga jalb qilish uchun immersiv qurilmalardan foydalanmoqda.

"Men raqamli jihatdan ko'proq faol va interaktiv dizayni ko'rmoqdaman", deb tushuntiradi Beci. "Ko'proq interaktiv dizaynlar yaratilmoqda. Avallari hamma kerakli dizayni internetdan xarid qilardi, keyinchalik dizayn olamidagi raqobat bu haridlarni keskin tushirib yubordi huddi videodisk do'konlar paydo bo'lgach, odamlar kinoga borishni to'xtatganlari kabi". Interaktiv infografika, kinetik logotiplar, sensorli eksponatlarni loyihalash bo'ladimi, brendlar va iste'molchilar, siz va auditoriyangiz o'rtasidagi haqiqiy aloqalarni rivojlantirish yo'llariga yordam beradi.

"An'anaviy brend ko'rsatmalari o'tmishda qolib ketgan", deydi Jeykob. "An'anaviy brend kitoblari javonlarda chang bosmoqda va versiya nazoratisiz PDF-lar bizning pochta qutimizda to'lib ketgan. Tezda yangilanishi mumkin bo'lgan raqamli dizayn uslublari qo'llanmalari 2024 - yilga va undan keyingi yillarga o'tishimiz bilan yanada standartlashtiriladi".

Yangi yilda grafik dizayn asboblari qutingizga Apple Vision Pro-ni qo'shmoqchimisiz? Raqamli tarkibni grafik dunyo bilan uzluksiz uyg'unlashtirgan Apple fazoviy hisoblash qurilmasi dizaynerlarga immersiv tajriba yaratish va ijodkorlikning yangi chegaralarini kashf qilish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Bularning barchasi grafik dizayn uchun nimani anglatadi? Birinchidan, grafik texnologiya ulkan bilbordagi reklama afishasi kabi ishingizni ommalashtirish va joyida ko'rish imkonini beradi. Shu bilan birga, Vision Pro 3D murakkab Photoshop yoki Illustrator loyihasini boshqarish uchun yordamlashadi, bu esa yanada samaraliroq va intuitiv dizayn jarayonini ta'minlaydi. Envato kompaniyasining raqamli dizayn menejeri Keyron Lyuis: "Apple dizaynerlardan 2024 yilda Vision Pro 3Ddan foydalanishini kutmoqda".

So'nggi bir necha yil ichida 90-yillar dizayn tendentsiyalari qayta tiklangan bo'lsada, odamlar bugungi kunda 70-yillar dizayniga qaytishmoqda. Beci: "Mening ishimda 10-15 yil oldin xuddi shunday tendentsiyalar bor edi va men hozir ham huddi shunday xalq dizayni jonlanishini ko'ryapman" deydi. Xalq dizayni oddiylik, haqiqiylikni, an'anaviy san'at va hunarmandchilikdan ilhom oladi. Xalq dizayni - bu

hikoyani aytib berish va tomoshabinlar bilan hissiy aloqalarni o'rnatish va nostalgi tuyg'usini yo'naltirish kuchiga ega.

Bugungi kunda barchamizga ma'lumki sun'iy intellekt tobora rivojlanib bormoqda shuningdek grafik dizayn dunyosini ham egally boshladi. Adobening generativ sun'iy intellekt modeli, Adobe Firefly, endi Adobe (Beta) dasturiy ta'minotiga integratsiyalashgan holda ishlatilmoqda. Biz endi murakkab so'rovlarsiz sun'iy intellekt tasvirlarini yaratishimiz mumkin. Agar sizda hali bu versiyalar yo'q bo'lsa, Adobe-ning innovatsion xususiyatidan foydalanishingizni tavsiya qilaman! Ammo bu grafik dizaynerlar va boshqa ijodiy mutaxassislar tez orada ishsiz qoladi degani emas. Va Beci Orpinning so'zlariga ko'ra, AI tendentsiyasi to'siq foydalanish uchun emas, balki imkoniyat sifatida qaralishi kerak. Ushbu vositalar vaqtni tejash va ijodkorlikni optimallashtirish imkoniyatlarini ochishi mumkin. Becining so'zlarga ko'ra: "Odamlar: "Oh, endi har kim illyustrator yoki dizayner bo'la oladi", deb o'ylashardi, ammo bu versiyalardan foydalanish uchun ham ma'lum bir mahorat, did va aniq bilim kerak".

Yuqorida biz 2024-yil uchun grafik dizayn tendentsiyalari haqida dizayn mutaxassislari Beci Orpin, Jessika Uolsh va Jeykob Kasslarning fikrlari orqali sizga ma'lumotlar berdik. Agar siz grafik dizayner yoki shu sohaga endi qadam qo'ygan bo'lsangiz dizayn borasidagi dunyoqarashlaringizni, didingizni oshirish uchun bugungi kundagi dizaynerlarning ishlarini, shu sohaga oid web saytlarni kuzatib borishingizni tavsiya qilamiz.